

Dekanat



Fakultet dekani

Inamov Aziz Nizamovich

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tel: +99871-237-09-70

Aziz Inamov 2015 yilda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutini "Geodeziya kartografiya kadastr" mutaxassisligi bo'yicha magistraturani tamomlagan. U 2013-2014 yillarda Geodeziya kartografiya milliy markazi bosh mutaxassisi (0.5 stavka), 2015-2016 yillarda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutini "Geodeziya va yer kadastr" kafedrasida stajyor o'qituvchisi, 2016-2017 yillarda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutini "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida stajyor o'qituvchisi, 2017-2018 yillarda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutini "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida assistenti, 2018 yil "Eng yaxshi pedagog" nomeniyasiyasi bo'yicha Respublika bosqichida g'olib bo'lib, dotsentlik ilmiy unvonini qo'lga kiritdi. 2021yilda 06.01.10- "Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi" ixtisosligida texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini oldi, 2018-2024 yillarda "TIQXMMI" MTU "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida dotsenti bo'lib, 2024 yilda 16 fevraldan boshlab Yer resurslari va kadastr fakulteti dekani lavozimida ish olib bormoqda.

O'quv ishlari bo'yicha dekan muovini



Akbarov Muxiddin Sadriiddinovich

Tel: +99871-237-09-70

Muxiddin Akbarov 1978 yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash muhandislari institutining "Yer tuzish" fakultetini tamomlagan. Shu yildan mazkur institutda katta laborant, assistent va katta o'qituvchi lavozimlarida ishlagan. 1998 yildan buyon fakultetda dekan o'rinbosari lavozimida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Pedagogik faoliyati bilan bir davrda Akbarov M.S. yer resurslarini boshqarish, yer tuzish, yer kadastr, geodeziya, kartografiya va kadastr sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlashda hamda oliy ma'lumotli, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. U o'ttizdan ortiq ilmiy maqola va tezislarni chop ettirgan. Shu jumladan, yigirmadan ortiq uslubiy ko'rsatmalar muallifi hisoblanadi. Uning muallifligida jami 5 ta, jumladan, TEMPUS xalqaro loyihasi doirasida 3 ta o'quv qo'llanma chop etilgan. Shuningdek, respublikamizning ommaviy nashrlarida (gazeta, jurnal, risola) yer resurslarini boshqarish hamda yoshlarni tarbiyalashga oid maqolalari chop etilgan. Muxiddin Akbarov 2010 yilda Shvetsiya Qirollik universitetida va 2014 yilda G'arbiy Yevropa universitetida, 2015 yilda Angliyaning Grinvich universitetida hamda 2015 yilda G'arbiy Vengriya universitetida soha bo'yicha malakasini oshirgan.



Yoshlar masalalari, ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

Eshova Hurriyat Hurrarova

Tel: +99871-237-09-70

Hurriyat Eshova 2007-2011 yillar O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakultetida bakalavriatni tamomlagan. 2013-2014 yillarda O'zbekiston Milliy universiteti Axborot xizmatlari texnologiyasi mutaxassisi magistratura bo'limini tamomlagan. U 2017-2018 yillar Toshkent Madaniyat kolleji o'qituvchisi, 2018 yildan hozirgi vaqtga qadar "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti Yer resurslari va kadastr fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda. Hurriyat Eshova fakultetda yoshlar bilan ishlash,

talaba-yoshlarning universitet hayotiga moslashuvi, shuningdek, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, yuksak ma'naviyatli va barkamol yoshlarni tarbiyalashda borasida o'z faoliyatini olib bormoqda. H.Eshova mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy tadqiqot va izlanuvchilik faoliyati bilan shug'ullanmoqda. U 09.00.04 - Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining roli" mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Shu kunga qadar tadqiqot natijalari bo'yicha 19 ta ilmiy ishlari chop etilgan.

**Dekan muovini**

Axmadaliyev Vaxobjon Abdiraxmonovich

Tel: +99871-237-09-70

Vahobjon Axmadaliyev 2005-yilda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutining "Yer tuzish va yer kadastri" mutaxassisligi bo'yicha magistraturani tamomlagan. U 2005-2007 Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutining Bino va inshotlar muhandisi, 2007-2011 yillarda talabalar shaharchasida mudir lavozimlarida ishlagan. 2010-2015 yillarda institutning "Geodeziya va yer kadastri" kafedrasida assistenti, 2015-2017 yillarda "Yer tuzish va yer munosabatlari" kafedrasida assistenti lavozimlarida ishlab kelgan. U 2017-yildan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining "Davlat kadastrlari" kafedrasida assistenti hamda "Yer resurslari va kadastr" fakulteti dekani muovini lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Vahobjon Axmadaliyev fakultetda talaba yoshlar bilan ishlash, ularning universitet hayotiga va oquv jarayoniga moslashuvi hamda talabalar bilan turli tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, shuningdek, yuksak ma'naviyatli va bilimli yoshlarni tarbiyalash borasida o'z faoliyatini olib bormoqda. Vahobjon Axmadaliyev mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy tadqiqot va izlanuvchilik faoliyati bilan shug'ullanmoqda. U 06.01.10 - "Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi" ixtisosligi bo'yicha "Chorvachilik tarmog'ida yerdan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Shu kunga qadar tadqiqot natijalari bo'yicha 15 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan.

**Dekan muovini**

Abduraxmonov Sarvar Narzullayevich

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tel: +99871-237-09-70

Sarvar Abduraxmonov 2005 yilda Toshkent arxitektura va qurilish instituti magistrantini "Amaliy geodeziya" mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. U 2005-2017 yillarda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutining "Geodeziya va yer kadastr" kafedrasida assistenti, katta o'qituvchisi hamda 2011-2018 yillarda dekan muovini lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2019 yilda dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan, 2021 yilda "Geodeziya. Kartografiya" ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini olgan. U 2021 yildan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutining "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida dotsenti va "Yer resurslari va kadastr" fakulteti dekani muovini lavozimlarida ishlab kelmoqda. Sarvar Abduraxmonov geodeziya va kartografiya, yer kadastr, yerdan foydalanish iqtisodi va yaylov yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni olib boradi. S.N.Abduraxmonov pedagogik davrida 150 dan ortiq ilmiy va uslubiy risolalar chop ettirgan. Jumladan, hozirgi kungacha 90 dan ortiq ilmiy maqolar chop ettirgan. 10 ta o'quv qo'llanma, 5 ta monografiya, ixtirolar uchun 7 ta mualliflik guvohnomasi, respublika va xalqaro anjumanlarda, Scopus bazasiga kiruvchi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. U 2022 yilda S.Sayfulin nomli Qozog'iston agratexnologiyalar universitetida va shu yilda Rossiya Federatsiyasi, Moskva shahri, Moskva davlat yer tuzish universitetlarida malaka oshirib kelgan. Sarvar Abduraxmonov oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quv jarayoniga ilg'or tajribalarni tadbiq etish bo'yicha geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartlarini, malaka talabalari va o'quv dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etgan. U fakultetda o'quv jarayonini samarali tashkil etish, ta'lim jarayonida o'qitishning kredit-modul tizimini joriy qilish hamda xorijning nufuzi universitetlari bilan hamkorlikni rivojlantirish jarayonlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda.

**Dekan muovini**

Xikmatullayev Sanjar Izzatullayevich

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Tel: +99871-237-09-70

Sanjar Xikmatullayev 2014-yilda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti magistraturasini "Geodeziya va kartografiya" mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. U 2016-2019 yillarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida assistenti lavozimida ishlagan. 2023-yilda dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan. U 2023 yildan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida katta o'qituvchi va "Yer resurslari va kadastr" fakulteti dekani muovini lavozimlarida ishlab kelmoqda. Sanjar Xikmatullayev geodeziya, kartografiya, geoinformatika, kadastr yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni olib boradi. Sanjar Xikmatullayev pedagogik davrida 50 dan ortiq ilmiy va uslubiy risolalar chop ettirgan. Jumladan, hozirgi kungacha 40 dan ortiq ilmiy maqolar chop ettirgan. Jumladan, 3 ta o'quv qo'llanma, 3 ta monografiya, ixtirolar uchun 4 ta mualliflik guvohnomasi, respublika va xalqaro anjumanlarda, Scopus bazasiga kiruvchi xorijiy ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalari nashr etilgan. Sanjar Xikmatullayev oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'quv jarayoniga ilg'or tajribalarni tadbiq etish bo'yicha geodeziya va geoinformatika ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etgan. U fakultetda o'quv jarayonini samarali tashkil etish, ta'lim jarayonida o'qitishning kredit-modul tizimini joriy qilish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish jarayonlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda.